



ASOSIY EKin SIFATIDA SOYA EKINLARINI EKISH MUDDATI VA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xoliqov Abror Tojimurodovich

qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori.

Xo'shboqova Zubayda Erkin qizi tayanch doktrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19045839>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 14-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 16- mart 2026 yil

KEY WORDS

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproq, asosiy ekin soya navlari, ekish tizimlari, unuvchanlik, harorat, bahorgi muddat, hosildorlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada sug'oriladigan tipik bo'z tuproq, bahorgi muddatlarda ekilgan soya navlari nazoratda "Nafis", "Velona" va "Toshkent" soya navlarining ekish tizimlarini ishlab chiqish hisobiga tuproqning agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalari ijobiy tomonga o'zgarib, undagi gumus va oziqa moddalar miqdorining tuproqning haydov (0—30 sm) va haydov osti (30—50 sm) qatlamlarida kamayishining oldi olinadi hamda ushbu navlardan olinadigan don hosili 15—20 % ga oshishi haqida yozilgan..

Natija va munozaralar. Surhondaryo viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida asosiy ekin sifatida soyaning "Toshkent", "Velona", "Nafis" hamda navlarini 60 sm qator oralig'ida 60x10x2 ekish tizimida ko'chat qalinligi 332 ming tup/ga, 70 sm qator oralig'ida 70x10x2 ekish tizimida ko'chat qalinligi 286 ming tup/ga me'yorda parvarishlashning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan, soyani "Toshkent" navi bahorgi muddatda 60x10x2 tizimda ko'chat qalinligi gektariga 332 ming tup hisobida ekilganda tuproqning hajm massasi amal davri oxirida haydov (0-30 sm) qatlamida 0,002-0,012 g/sm³, soyani "Velona" navida 0,005-0,015 g/sm³ yaxshilangani aniqlandi, soyani "Toshkent" navi 70x10x2 tizimda parvarishlanganda amal davri oxiriga kelib, amal davri boshiga nisbatan tuproqning suv o'tkazuvchanligi 158 m³/ga, "Velona" navida 104 m³/ga kamaygani va tuproqning suv-fizik xususiyatlariga ijobiy ta'sir qilganligi qayd etilgan, soyani "Toshkent" navi 70x10x2 tizimda ekilib, gektariga 286 ming tup ko'chat qalinligida parvarishlanganda o'simlikning bo'yi 109,0 sm, dukkaklar soni 47,6 dona, "Velona" navi 60x10x2 tizimda gektariga 332 ming tup ko'chat qalinligida yetishtirilganda o'simlikning bo'yi 82,0 sm, dukkaklar soni 35,0 donani tashkil etganligi aniqlandi, soyani "Toshkent" navi 70x10x2 hamda "Velona" navi 60x10x2 tizimda ekilganda, tuproqning mikrobiologik xossalari o'ziga xos ta'sir ko'rsatib, amal davri boshida 0-30 sm qatlamda fosfor parchalovchi bakteriyalar aniqlanmagan bo'lsa, amal davri oxirida fosfor parchalovchi bakteriyalar soni 7,5x10⁵ k/g ni tashkil etgan va tuproq mikroflorasi yaxshilanishi aniqlandi, soyani "Toshkent" navi 70x10x2 tizimda ekilib, 286 ming tup/ga ko'chat qalinligida yetishtirilganda don hosili 34,2 ts/ga, oqsil miqdori 39,4 %, moydorligi 22,3 %, "Velona" navi 60x10x2 ekish tizimida 332 ming tup/ga ko'chat qalinligida

parvarishlanganda don hosili 29,8 ts/ga, 1000 dona don vazni 137,5 g, oqsil miqdori 38,5 %, moydorligi 21 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Soya asosiy mahsulotlari – bu soya uni va moyi hisoblanib, soya unidan oziq-ovqat, qandolat mahsulotlari, to'ldiruvchilar, go'shtning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishda, sut, pishloq va diabet mahsulotlari tayyorlashda foydalaniladi.

Material va uslublar. Tajribani joylashtirish, fenologik kuzatishlar, unib chiqqan nihollarni hisob-kitob qilish ishlari O'zPITIning "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2007) qo'llanmasi asosida o'tkazildi.

O. Norbekovning (2009) ilmiy izlanishlarida Respublikamizning barcha hududlariga soyaning mahalliy Orzu, Do'stlik, Yulduz navlarini asosiy va takroriy ekin sifatida ekish mumkin. Bir pogona metrda 28-30 dona urug' tashlangani ma'qul. Soyani parvarishlash makkajo'xori agrotexnikasi singari amalga oshirilishini ta'kidlab o'tishgan. Z. Hafizovanning (2017) fikricha, soya agrotexnikasi o'tkazilgan ko'rgazmali seminarda, asosiy ekin sifatida, soya ekishni Respublikamiz sharoitida tuproq harorati 14 °C dan kam bo'lmagan holatda 15 apreldan 10 maygacha ekish, urug'larni tuproq namida birtekis, qiyg'os undirib olish, navlarni tanlashda 110-120 kun bo'lgan, o'simlik bo'yi 120-150 sm, pastki dukkaklar tuproq yuzasidan 14-20 sm balandlikda joylashgan, yotib qolishiga chidamli, hosil bir vaqtda pishib yetiladigan va donlari to'kilmaydigan, joriy yilda ekilgan Velona navlarini takroriy ekin uchun 75-80 kunlik Amego, Sparta, Arletto navlarini joylashtirish maqsadga muvofiqligini qayd etgan. Ushbu navlar asosiy ekin sifatida gektariga 2,5-3,0 tonna, takroriy ekin sifatida 1,5-2,0 tonna sifatli soya yetishtirish imkonini bergan.

Qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishda maqbul ko'chat qalinligiga erishish muhim omillardan biri bo'lib, har bir agrotexnik tadbirning samaradorligini oshirishda eng avvalo ekilgan urug'larni qiyg'os undirib olish hamda to'g'ri agrotexnik tadbirlar qo'llash, oziqa maydonini o'simlik me'yorida o'sib rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish kelgusida yuqori hosildorlikka erishishga zamin yaratadi.

Izlanishlarda soya navlarining ko'chat qalinligi mavsum boshida va amal davri oxirida bahorgi ekish muddatlari, ekish tizimlari fonida aniqlandi, tadqiqot natijalariga ko'ra nazorat variantida ko'chat qalinligi amal davri boshida 412 ming tupni tashkil etgan bo'lsa, amal davri oxiriga kelib 408 ming tupni tashkil etganligi kuzatildi. Toshkent navida amal davri boshida 2-variantda 411 ming tupni tashkil etgan bo'lsa, amal oxirida esa 406 ming tupni tashkil etganligi kuzatildi. Shunga ko'ra eng maqbul, ya'ni soyaning yaxshi o'sib rivojlana oladigan darajada ko'chat qalinligi yaratilishi juda muhimligi kuzatildi. Shu sababli tajriba variantlarida o'simlikning o'sishi, rivojlanishi va o'suv organlarini hisoblash bilan birga undagi hosil elementlari soni ham qayd etib borildi.

Toshkent navida amal davri boshida 2-variantda 344,4 ming tupni tashkil etgan bo'lsa, amal oxirida esa 361,1 ming tupni tashkil etganligi kuzatildi. Kelgusida o'simlikning o'sishi va rivojlanishi, hosil to'plashi esa olingan ko'chat bilan bevosita bog'liq jarayon hisoblanadi. Soya nihollari to'liq ko'karib chiqqandan so'ng 60 tizimda 16,6 pagonometrda 17-25 dona, 70 tizimda 14,3 pagonometrda 17-25 dona soya o'simligi qoldirilib yagonalash o'tkazildi.

Mavsum boshidan mavsum oxirigacha 2-3 ming tup/ga atrofida tup sonining kamayishi kuzatildi. Bunga sabab qator oralig'iga ishlov berish va boshqa tashqi-ichki omillarning ta'siri bo'lishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, nazorat variantida ko'chat qalinligi amal davri

boshida 355,8 ming tupni tashkil etgan bo'lsa, amal davri oxiriga kelib 352,8 ming tupni tashkil etganligi kuzatildi.

Nafis navi Toshkent va Velona naviga nisbatan 1–2 martaga suvga talabchanligi kuzatildi. Tadqiqot natijalarimizga ko'ra ob-havo juda issiq bo'lib ketganligi sababli suvga talabchanligi yuqori bo'lib, suvni 1 martaga ko'proq talab qilgan. Tadqiqotlarimizda olib borilgan tajribalarda bu holat kuzatib borilganligi hisobiga, undan keyin yana kuzda ekin ekish imkoniyati borligi aniqlandi.

Xulosa. Olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, soya navlaridan Velona navi ertapishar ekanligidan dalolat beradi va bahorgi ekindan keyin yig'ishtirib olingandan so'ng ham kuzda yana ekin ekish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Toshkent – 2007 y.
2. Norbekov O. Soya – keltiradi sarmoya. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, № ..., Toshkent – 2009 y., 7-bet.
3. Hafizova Z. Soya mamlakatimizda ommalashmoqda. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, № 9, Toshkent – 2017 y., 34-bet.

